XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2021 - yil 1 - noyabr VI-46-76-7-105-K/21 Urgut tuman hokimligi

Urgut tumanidagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlarini o‘zgartirish, yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 31-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi qarori bilan tasdiqlangan “Tumanlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2021-yil 28-sentabrdagi 08-05335-sonli xati, shuningdek “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi 2021-yil 28-sentabrdagi ekspert xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2021-yil 28-sentabrdagi 08-05335-sonli xati, shuningdek, “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi takliflarini qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi 2021-yil 28-sentabrdagi ekspert xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Urgut tumanidagi “Xo‘jayduq” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga 1 ta yangi “Shirvoqota”, “Murodqishloq” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga 1 ta yangi “Buloqboshi”, “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga 1 ta yangi “Beshbuloq”, “Yangiobod” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga 1 ta yangi “Ogahiy”, “Ipakli” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga 1 ta yangi “Xalqobod” mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etilsin.

3. Urgut tumani hokimligi moliya bo‘limi (O.Qorayev)ga:

tumanda yangi tashkil etilgan “Shirvoqota”, “Buloqboshi”, “Beshbuloq”, “Ogahiy”, “Xalqobod” mahalla fuqarolar yig‘inlari uchun shtat birliklarini ajratish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni mahalliy budjet parametrlarida rejalashtirsin.

4. Urgut tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov), tuman hokimining o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (O.Qorayev) va sektor rahbarlariga:

yangi tashkil etilayotgan “Shirvoqota”, “Buloqboshi”, “Beshbuloq”, “Ogahiy”, “Xalqobod” mahalla fuqarolar yig‘inlari xodimlari uchun yaratilgan ish sharoitlari hamda aholiga xizmat ko‘rsatish uchun barcha qulayliklar mavjudligini o‘rganib chiqish va amaliy yordamlar ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimligining mahallalarni bo‘lish (ularning chegaralarini belgilagan va ularga nom bergan yoki ularning nomini o‘zgartirgan holda) to‘g‘risidagi taklifi asosida tashkil etiladigan yangi mahallalarning chegaralari chizilgan va tavsiflangan chizmalari tasdiqlansin.

6. Urgut tumani Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Mamadoliyev), tuman hokimining o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov)lar 10 kun muddatda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning muhr-tamg‘alari va burchak shtamplarini belgilangan tartibda tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

7. Urgut tumani hokimi o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov) bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida amaldagi qonun talablariga rioya etgan holda pandemiya sharoitidan kelib chiqib yangi saylov o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

8. Urgut tumani hokimligi axborot xizmati (A.Ziyodov), "Urgut sadosi" gazetasi (Sh.Sanayev)ga mazkur qarorni belgilangan tartibda tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Yuldoshev), Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yarboboyev), tuman hokimi o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i

(U.Salomov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Jabborov**

Халқ депутатлари Ургут туман
Кенгашининг
2021 йил 1 ноябрдаги
VI-46-76-7-105-K/21-сон қарорига
1-илова

Urgut tumanidagi yangi tashkil etilayotgan mahallalarni nomlash

T/R	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Urgut tumani Xo‘jayduq MFY	Nomsiz mahalla	Shirvoqota	Qonun hujjalari talablariga muvofiq.
2.	Mahalla	Urgut tumani Murodqishloq MFY	Nomsiz mahalla	Buloqboshi	Qonun hujjalari talablariga muvofiq.
3.	Mahalla	Urgut tumani Bunyodkor MFY	Nomsiz mahalla	Beshbuloq	Qonun hujjalari talablariga muvofiq.
4.	Mahalla	Urgut tumani Yangiobod MFY	Nomsiz mahalla	Ogahiy	Qonun hujjalari talablariga muvofiq.
5.	Mahalla	Urgut tumani Ipakli MFY	Nomsiz mahalla	Xalqobod	Qonun hujjalari talablariga muvofiq.